

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MATERIALLARIDA MORFOLOGIK VA SINTAKTIK XATOLIKLAR

Hasanjon OLIMOV

tayanch doktorant

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada aynan sport saytlari xabar hamda yangiliklarida uchrab turuvchi grammatik xatolar va uslubiy kamchiliklar tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: grammatik norma, morfologik xatolar, sintaktik chalkashliklar, kelishik qo'shimchalari, sintaktik qurilma, faol va nafaol qatlam, sport saytlari, lisoniy xususiyatlar.

ЛОГИЧЕСКИЕ И СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОШИБКИ В МАТЕРИАЛАХ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

Хасанжон ОЛИМОВ

базовый докторант

Университет журналистики и массовых

коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье анализируются грамматические ошибки и методические недостатки, встречающиеся в новостях и сообщениях спортивных сайтов.

Ключевые слова: грамматическая норма, морфологические ошибки, синтаксические путаницы, суффиксы согласия, синтаксический аппарат, активный и пассивный слои, спортивные сайты, лингвистические особенности.

Matnning to'g'ri bo'lishida grammatik normalaming o'rni muhimdir. Grammatik norma deganda, eng avvalo, yozma nutq qurilishining grammatik shakllarini, tartibini, to'g'ri tuzish va ularning gapda ishlatilishini o'z ichiga oluvchi, qat'iy qaror topgan sistema tushuniladi.

Shunisi aniqki, faqat grammatik qoidalarga rioya qilishgina nutqqa qat'iy ma'noli va mantiqiy izchil xarakter berish imkonini yaratadi. Chunki "so'z o'zicha hamma imkoniyatlarini ocha olmaydi. U faqat boshqa so'zlar bilan birikkandagina, har safar yangi ma'no kasb etib, fikr va hissiyotlarning nozik qirralarini ifodalab keladi" [1].

Sport saytlarida orfografik xatolar tez-tez uchrab turadi. Masalan, “olamsport.com” saytida ushbu yangilikka e’tibor qaratamiz:

Fenerbaxche ustoz Joze Mourinyu nima sababdan Istanbul jamoasini boshqarishga rozi bo’lganini malum qildi.

«Yana chempionlik uchun kurashish imkoniyati bo’lgani sababli ushbu jamoani boshqarishga rozi bo’ldim. «Roma»da bunday imkon yo’q edi. Ular bilan A Seriya g’olibligi uchun kurashib bo’lmasdi. «Roma»ni tark etganimdan keyin u erda hech narsa o’zgarmadi. «Roma»da biz Evrokuboklarda nisbiy muvaffaqiyatga erishdik, ammo chempionlik uchun kurasha olmadik.

Yangilikdagi birinchi imloviy xatò “ma’lum” so’zida tutuq belgisining tushib qolishidir. Ikkinchi kamchilik esa “yerda” so’zining “erda” bo’lib qolganidir. Orfografik xatolar nafaqat xabarning texnik sifatiga, balki mazmuniga ham salbiy ta’sir o’tkazadi.

Tilshunos mutaxassis Mavlon Marasulov shunday degan edi: “Salbiy jihati shundaki, ijtimoiy tarmoqda savodsizlik qanchalik palak yozsa, odamlar buni ijtimoiy me’yor sifatida qabul qilishni boshlaydi va xatolar takrorlanaveradi. Til battar buziladi” [10].

Ba’zan kelishik qo’shimchalari farqlanmasdan ishlatiladi. Bu esa mazmunda xatolikka olib kelishi mumkin:

Eron bilan Toshkentda durang o’ynash qoniqarli natija bo’lsa-da, o’yinning ma’lum pallasida bir kishi ko’p bo’lib qolib, g’alabaga imkoniyat paydo bo’lgani biz uchun qo’shimcha bonus yaratishi mumkin edi. Uch o’yindan so’ng 9 ochkoga ega bo’lish rejadagidan ham ko’proq, ya’ni biz ochko to’plash rejimida oldinga chiqib olardik. Bu jamoamizni qo’shimcha bosimdan xalos qilar, futbolchilarda har qanday o’yinda xato qilish imkoniyatini taqdim etgan bo’lar, qaysidir pallada kutilmagan ochkolarni yo’qotish ham u qadar og’riqli bo’lib chiqmasdi.

Ushbu gapda o’rin payt kelishigi noto’g’ri qo’llangan. Chunki “futbolchilarda xato qilish imkoniyatini taqdim etgan bo’lardi” emas, balki “futbolchilarga xato qilish imkoniyatini taqdim etgan bo’lardi” maqsadga muvofiqdir.

Ko'pchilik -lar qo'shimchasini qo'llashda ham chalkashlikka yo'l qo'yadi. Masalan, *"APLda doimo legionerlar ko'p bo'lgan. Dunyoning istalgan burchagidagi futbolchilar eng kuchli ligada to'p surishni orzu qiladilar. Premyer-ligada fransuzlar ko'pchilikni tashkil etgan. Arsen Venger "Arsenal"ga fransuz futbolchilarini jalb qilishni yaxshi ko'rardi. Bugun sizlar bilan APLda eng ko'p o'yin o'tkazgan fransuzlar haqida suhbatlashamiz"*[9].

Ushbu xabardagi *"Dunyoning istalgan burchagidagi futbolchilar eng kuchli ligada to'p surishni orzu qiladilar"* gapida -lar qo'shimchasi noo'rin qo'llangan.

"Ota-bola Messilar hayotida yoqimsiz voqealar ham yo'q emas: 2016-yilda ular soliqlarni vaqtida to'lamaganliklari uchun 21 oyga ozodlikdan mahrum etilgandilar. Leoning aytishicha, moliyaviy masalalarni otasi hal qiladi. Ma'lum bo'lishicha, Xorxening kirim,chiqim sohasidagi bilimi talab darajasida emas"[9].

Ushbu misolda ham *"2016-yilda ular soliqlarni vaqtida to'lamaganliklari uchun 21 oyga ozodlikdan mahrum etilgandilar"* emas, balki *"mahrum etilgandi"* bo'lishi yaxshiroqdir.

Ona tili xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlash va ularni o'rnida ishlatish, ya'ni nutqning to'g'ri tuzilishiga erishish nutq madaniyatining asosiy talablaridan biridir. Bu haqda G.O.Vinokur yozadi: *"Mening nazarimda, lisoniy tarbiya va til madaniyatini ko'tarish ishida birinchi darajali vazifa aynan grammatik uslubiyat zimmasiga tushadi"* [2].

Tilda har bir so'zni, grammatik formani, har bir sintaktik qurilmani o'z o'rnida, ya'ni shu so'z, shu grammatik shakl yoki sintaktik qurilma (gap) ishlatilayotgan vaziyatni (tinglovchi saviyasi, ularning holati kabilar) hisobga olgan holda to'g'ri qo'llash, ularning shu vaziyatiga eng mos tushadiganini tanlab, nutq jarayonida ulardan unumli foydalanish, eng ixcham va fikrni lo'nda ifodalanganini, eng sodda va hammaga tushunarlisini ishlatish nutqning ravoniigini, tushunarligini, aniqligini ta'minlaydi, uni g'alizliklardan xalos etadi. So'zlarni, grammatik shakllarini beixtiyor, nazoratsiz aytib yuborish, bo'lar-bo'lmasga u yoki bu so'zdan yoki grammatik shakllardan foydalanaverish,

umuman, ularni ortiqcha qo'llash, o'rinli-o'rinsiz takrorlaverish nutqni g'aliz qiladi, fikrni xiralashtiradi, uning ta'sirchanligiga putur etkazadi [5].

Matnda qo'shimchalarning to'g'ri qo'llanishi haqida fikr yuritilsa, ko'pincha, chigallik, qarama-qarshiliklarga duch kelish mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida esa so'zlashuvda qo'shimchalarni bir-birining o'rnida almashtirib qo'llash yoki ayrim qo'shimchalardan faqat yozma matnlardagina foydalanish ko'rsatiladi. Yuzaki qaraganda, bu tabiiy holdir. Chunki tilda hamisha faol va nafaol qatlam bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan ba'zi so'zlar iste'moldan chiqib ketgani kabi qo'shimchalar ham faolsizlanishi mumkin [3]. Lekin ayrim hollarda tilda faol bo'lib turgan grammatik vositalarning ham matn tarkibida noto'g'ri berilishini ko'rishimiz mumkin.

Masalan, *“FIFA futzal bo'yicha Fransiya – Eron o'yini bo'yicha tekshiruv boshladi.*

FIFA O'zbekistonda o'tayotgan futzal bo'yicha jahon chempionati guruh bosqichi doirasidagi Eron – Fransiya (4:1) o'yini bo'yicha tekshiruv boshladi. Liviya terma jamoasi uchrashuvning «kelishilgan xarakterga ega bo'lishligi» haqida shikoyat xati yo'llagan” [6].

Ushbu gapdagi *“kelishilgan xarakterga ega bo'lishligi”* birikmasi *“kelishilgan xarakterga ega bo'lishi”* tarzida berilsa, mazmun yana ham aniqroq bo'ladi. Ya'ni bu yerda -lik qo'shimchasining berilishi uslubiy xatodir.

Qo'shimchalarni qo'llashdagi yanglishishlar faqat yuqoridagilar bilan cheklanib qolmaydi. Bu boradagi eng nozik yana bir masala bu – kelishiklardir. Ayrim o'rinlarda qaratqich (-ning) va tushum(-ni) kelishiklaridan noto'g'ri foydalanish yoki bir-birining o'rnida foydalanish hollari uchrab turadi.

“Bunga yaqqol dalil sifatida futbol o'yinlariga tashrif buyurgan 2000 nafar tomoshabin o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 54 foiz inson noqulay o'yin vaqtdan noroziligini bildirib, o'rindiqlarda ichimlik ichish mumkin emasligidan shikoyat qilgan.

Har to‘rtinchi muxlisning fikricha, mehmondagi o‘yinlar taqvimini yaxshilash qonun chiqaruvchilarning e‘tibor qaratadigan asosiy narsa bo‘lishi kerak” [7].

Maqolada qaratqich kelishigi ifodalagan qaralmish “asosiy narsa” so‘zida egalik qo‘shimchasi yo‘q. Bu esa ma’noda g‘alizlikni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga “qonun chiqaruvchilarning e‘tibor qaratadigan asosiy narsa” emas, balki omili, masalasi yoki muammosi deb yozilsa maqsadga muvofiqdir.

Tilda har bir so‘zni, grammatik formani o‘z o‘mida, ya‘ni shu so‘z, shu grammatik shakl yoki sintaktik qurilma (gap) ishlatilayotgan vaziyatni (tinglovchi saviyasi, ulaming holati kabilar) hisobga olgan holda to‘g‘ri qo‘llash, nutq jarayonida ulardan unumli foydalanish, eng ixcham va fikrni lo‘nda ifodalanganini, eng sodda va hammaga tushunarlisini ishlatish nutqning ravonligini, tushunarligini, aniqligini ta‘minlaydi, uni g‘alizliklardan xalos etadi.

Masalan, tribuna.uz saytidagi maqolaga e‘tibor bering: *“Manchester Siti” klubi va Ispaniya milliy jamoasi yetakchisi va bugungi kun futbolining eng kuchli tayanch yarim himoyachilaridan biri — Rodri «The Player’s Tribune» nashriga intervyu berib, o‘zining maydondagi va hayotdagi «olami» haqida gapirib berdi.*

«Men doim jamoadoshlarimga inglizcha emas, amerikancha gaplashishimni aytaman. Ular ustimdan kulishni yaxshi ko‘rishadi. Doim shunday. Odatda, kiyadigan ust-boshlarimni deb masxara qiladilar” [6].

So‘zlarni, grammatik shakllarini beixtiyor, nazoratsiz aytib yuborish uning ta’sirchanligiga putur etkazadi. *“Men doim jamoadoshlarimga inglizcha emas, amerikancha gaplashishimni aytaman”*. Mana shu gap o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Nega amerikalik aholi inglizcha gapirmaydimi? “Inglizcha emas amerikancha gapiraman” deb yozgan muallif. *“Men doim jamoadoshlarimga inglizcha shevada gapiraman”* yozilsa nutq madaniyatiga mos bo‘ladi, menimcha.

“Odatda, kiyadigan ust-boshlarimni deb masxara qiladilar”. Ushbu gapda ham ko‘plik qo‘shimchasi matnga muvofiq emas. *“Odatda, kiyadigan ust-boshimni masxara qilishadi”* deyilsa, usluban mos bo‘ladi.

Grammatik shakllarni tanlash va ularni joy-joyida ishlatish, ya'ni morfologik va sintaktik jihatdan to'g'ri tuzilishiga erishish nutq madaniyatining asosiy talablaridan biridir.

So'zning morfologik tarkibi deganda morfologik kategoriyalar, so'zning morfologik shakllar sistemasi, so'z morfemasining hosil bo'lish yo'llari, vositalari, ularning leksik-grammatik kategoriyalari tushuniladi.

Misol tariqasida birgina so'zlarga qo'shilib ko'plik hosil qiladigan -lar qo'shimchasini morfologik tahlil qilsak, bir necha ma'no qirralarini ko'rishimiz mumkin.

“Germaniya terma jamoasi va Madridning “Real” klubi himoyachisi Antonio Ryudiger “Manchester Siti”ning norvegiyalik markaziy hujumchisi Erling Xolandni to'xtata oladigan futbolchilar nomini aytdi” [9].

Ushbu misolda -lar qo'shimchasi morfologik usulda ko'plik hosil qilgan. Ammo sport saytlarida bu qo'shimchasiz ham ko'plik ma'noni berish mumkin.

“O'zbekiston kubogi finalidagi g'alaba uchun «Andijon» futbolchilariga «Onix» avtomobillari va'da qilindimi? Bosh murabbiy javob berdi.

Avvalroq, klub bosh homiysi «O'zAvtosanoat» hamda Andijon viloyati hokimligi tomonidan jamoa finalda «Navbahor»ni mag'lub etgan taqdirda har bir futbolchiga «Onix» avtomobillari sovg'a qilinishi haqida xabarlar tarqalgandi” [6].

Mana shu xabarda “klub”, “jamoat” so'zlarining leksik ma'nosi ko'plikni anglatib turadi.

Ba'zan sport matnlaridagi ko'plik maxsus so'zlar bilan ham ifodalanadi. “Olti himoyachi”, “o'n nafar futbolchi”, “to'rtta zarba”, “uchta gol” kabi so'zlar bunga misol bo'ladi. Ilmiy manbalarda bu holat leksik usulda ko'plik hosil qilish deyiladi.

Atoqli otlarga -lar affiksi qo'shilganda umumlashtirish, jamlash ma'nosini bildiradi. “Stadion.uz” saytida “Ishonchni oqlagan va oqlamagan “Messilar” deb nomlangan maqolada -lar qo'shimchasining umumlashtirish ma'nosi mavjud.

Mavhum otlarga qo'shilganda esa kuchaytirish, bo'rttirish ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, *“Milliy jamoadagi xayrlashuv o'yinidan keyin Suaresning do'sti Lionel Messi stadion monitori orqali klubdoshiga tilaklarini bildirdi. Luis ko'z yoshlarini tiya olmadi.*⁶ Yoki *“Galatasaroy» hujumchisi pirotexnika vositasi portlashidan ko'zlari kuyib, kasalxonaga yotqizildi”* gaplarida “ko'z yoshlar”, “ko'zlari” leksemalaridagi -lar ma'noni kuchaytirganini sezish qiyin emas.

Ba'zan sport matnlarida kelishiklarning tushib qolish holatlari uchrab turadi.

“O'zbekiston U-15 terma jamoasi Qirg'iz Respublikasi darvozasiga 6 ta to'p kiritdi.

Sergey Chigodaev boshqaruvidagi O'zbekiston U-15 terma jamoasi turkiyzabon davlatlar futbol assotsiatsiyalari turniri doirasidagi ikkinchi uchrashuvini Qirg'iz Respublikasi jamoasiga qarshi o'tkazdi va 6:1 hisobida g'alaba qozondi [9].

Mana shu matnda “to'p kiritdi” shaklida kelgan kesim aslida “to'pni kiritdi” bo'lishi lozim. Bunday holat qo'shimchanning belgisiz ishlatilishi hisoblanadi. *“Raqib himoyasi”, “darvoza ustuni”, “jamoa hujumi”* kabi birikmalarda ham -ning qo'shimchasi belgisiz qo'llangan. Bu esa adabiy til uchun norma hisoblanadi.

Lekin gohida ushbu qo'shimchanning tushib qolishi xatodir. Masalan, *“Angliyaning Yevro-2024 uchun yakuniy tarkibi ma'lum — Grilish, Meddison va Maguayr turnirga bormaydi”.*

Grilish tarkibdan chiqarilgani futbolchilarni ham hayron qoldirdi. Tajribali o'yinchilardan biri bosh murabbiydan bu qarorning sababini so'radi” [7].

Ya'ni *“Grilish tarkibdan chiqarilgani”* emas *“Grilishning tarkibdan chiqarilgani”* bo'lishi adabiy til me'yoridir.

Ba'zan qaratqich kelshigi o'rnida -dan qo'shimchasi qo'llanilishi uchraydi. *“Kapadzega qiyin bo'ldi. Tarkibdan muhim o'yinchilardan biri tushib qolishi aniq edi.*

Sport sharhlovchisi Davron Fayziyev O'zbekiston olimpiya jamoasining Parijga boradigan tarkibi haqida fikr bildirdi” [6].

“Tarkibdan muhim o‘yinchilardan biri” emas “tarkibdan muhim o‘yinchilarning biri tushib qoladi” deb yozilsa mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, matn qanday bo‘lishidan qat’iy nazar uning tarkibidagi so‘z va qo‘shimchalarni uzviy ravishda munosib qo‘llash muallifning mahoratini ifodalabgina qolmay, o‘quvchining qabul qilishini osonlashtiradi. Umuman olganda, buning uchun muallif va muharrirdan yetarlicha mas’uliyat talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Блинов И.Я. О культуре речи. – Москва: Наука. 1956.
2. Винокур Г.О. Культура языка. Хрестоматия. – Москва: Наука, 1984. – 168 с.
3. Йўлдошев М., Исоқов З., Ҳайдаров Ш. Бадий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2010.
4. Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек тили услубияти. – Тошкент: Университет, 2001.
5. Тожиев Э. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент, 1992.
6. <https://tribuna.uz>
7. <https://olamsport.com>
8. jadid-media.uz
9. <https://stadion.uz>
10. oina.uz